

## TEXNOLOGIYA FANIDAN TALABALARNING KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

<sup>1</sup>Ruzmetova Zuxra Shavkatovna, Urganch Innovatsion universiteti  
“Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи o‘qituvchisi

<sup>2</sup>Matkarimova Oyimjon Saidnazar qizi, Urganch Innovatsion universiteti “Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи o‘qituvchisi

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПО ТЕХНОЛОГИЯМ

<sup>1</sup>Рузметова Зухра Шавкатовна, преподаватель кафедры  
«Педагогика и методика начального образования» Ургенчского  
инновационного университета

Маткаримова Ойимжон Saidnazar кызы, преподаватель кафедры  
«Педагогика и методика начального образования» Ургенчского  
инновационного университета

## USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS IN TECHNOLOGY

<sup>1</sup>Ruzmetova Zuhra Shavkatovna – teacher of the department of  
“Pedagogy and Primary Education Methodology” of Urgench  
Innovation University

<sup>2</sup>Matkarimova Oyimjon Saidnazar qizi – teacher of the department of  
“Pedagogy and Primary Education Methodology” of Urgench  
Innovation University

**Annotatsiya:** Ushbu maqola talabalarning kasbiy kompetentligini  
shakllantirishda innovatsion ta'lism texnologiyalaridan

foydalanishning ahamiyatini o‘rganadi. Xususan, texnologik ta'lism o‘qituvchilarini tayyorlash  
jarayonida yangi pedagogik va texnologik metodlarning integratsiyasi ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** texnologiya, kasbiy kompetentlik, innovatsiya, interaktiv, ta'lism texnologiyalari.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается важность использования инновационных  
образовательных технологий в формировании профессиональной компетентности студентов. В  
частности, рассматривается интеграция новых педагогических и технологических методов в  
процесс подготовки педагогов технологического образования.

**Ключевые слова:** технология, профессиональная компетентность, инновация, интерактив,  
образовательные технологии




[https://orcid.org/0009-  
0009-5412-6622](https://orcid.org/0009-0009-5412-6622)

e-mail:  
matkarimovaoyimjon@ur  
giu.uz



[https://orcid.org/0009-0009-  
5031-1134](https://orcid.org/0009-0009-<br/>5031-1134)

e-mail:  
zuxrashavkatovna@urgiu.uz



**Abstract:** This article examines the importance of using innovative educational technologies in the formation of students' professional competence. In particular, the integration of new pedagogical and technological methods in the process of training teachers of technological education is considered.

**Keywords:** technology, professional competence, innovation, interactive, educational technologies.

**KIRISH.** Hozirgi kunda ta'lif tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – kelajak mutaxassislarini raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishdir. Ayniqsa, texnologik ta'lif yo'nalishida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik faoliyat an'anaviy yondashuvlardan uzoqlashib, innovatsion ta'lif texnologiyalarini qo'llashni talab qilmoqda.

Innovatsion ta'lif texnologiyalari o'qitish jarayonini interaktiv, samarali va zamonaviy talablar asosida tashkil etishga yordam beradi. Bu texnologiyalar ta'lif sifatini oshirish bilan birga, talabalar mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu maqola texnologik ta'lif o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion ta'lif texnologiyalaridan foydalanish masalasini ilmiy jihatdan o'rghanish ga qaratilgan.

**ASOSIY QISM. Kasbiy kompetentlik** – bu mutaxassisning o'z kasbi doirasida samarali ishslash, muammolarni hal qilish va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatidir. Zamonaviy ta'lif tizimida kompetentlik yondashuvi muhim ahamiyat kasb etib, faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikmalar va shaxsiy sifatlarni ham o'z ichiga oladi.

### **Kasbiy kompetentlik quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:**

Hozirgi kunda kasbiy kompetentlik tushunchasi muntazam rivojlanib bormoqda. Xalqaro me'yorlarga ko'ra, zamonaviy mutaxassis quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:

1. Moslashuvchanlik va muammolarni hal qilish – yangi vaziyatlarga moslashish va tezkor qaror qilish qobiliyat.
2. Tanqidiy va tizimli fikrlash – axborotni tahlil qilish, asoslangan xulosa chiqarish va strategik rejalashtirish ko'nikmalar.
3. Texnologik savodxonlik – raqamli texnologiyalarini o'zlashtirish va ular bilan ishslash.
4. Jamoaviy ish va kommunikatsiya – samarali hamkorlik qilish va professional muhitda samarali muloqot olib borish.

5. Ijodiy va innovatsion yondashuv – yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotga tatbiq etish.

Texnologik ta'lif zamonaviy pedagogika tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, talabalarla texnik va muhandislik sohasidagi fundamental bilimlarni berishga qaratilgan. Bu yo'nalishda faoliyat yurituvchi o'qituvchilar nafaqat o'z fanini yaxshi bilishi, balki innovatsion yondashuvlarga ega bo'lishi ham muhimdir.

Texnologik ta'lif o'qituvchilarining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan asosiy talablar:

1. Nazariy bilimlar: texnologik jarayonlar, texnik fanlar va muhandislik asoslari.
2. Amaliy tajriba: laboratoriya ishlari, texnologik innovatsiyalar bilan ishslash qobiliyati.
3. Pedagogik mahorat: zamonaviy ta'lif usullari, interaktiv texnologiyalarini qo'llash.
4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish: raqamli ta'lif resurslari va dasturiy ta'minotdan foydalanish.

Texnologik ta'lif o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish orqali ta'lif sifatini yaxshilash, talabalar bilimini amaliy jihatdan mustahkamlash va innovatsion fikrlashni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Hozirgi kunda an'anaviy ta'lif usullari bilan birga innovatsion ta'lif texnologiyalaridan foydalanish ta'lif sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Zamonaviy ta'lif texnologiyalarini kasbiy kompetentlikni shakllantirishda quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv: har bir talabaning qobiliyatiga mos o'qitish.
2. Interfaol usullar: talabalarni faol ishtiroy etishga undash (muammoli ta'lif, amaliy loyiylar, jamoaviy ish).
3. Raqamli texnologiyalar: elektron darsliklar, virtual laboratoriylar, onlayn o'qitish platformalari.
4. Refleksiv yondashuv: o'z-o'zini baholash, ta'lif natijalarini tahlil qilish va tahliliy tafakkurni rivojlantirish.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun aniq strategiyalar va innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion ta'lismi texnologiyalari talabalarni faqatgina bilim oluvchilar sifatida emas, balki mustaqil taddiqotchilar, ijodkor shaxslar va kelajakdagi mutaxassislar sifatida tayyorlashga yordam beradi. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Interaktivlik – talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

2. Mustaqil ta'lismi olish imkoniyati – talabalarning o'zlarini yangi bilimlarni mustaqil ravishda o'rganishiga ko'maklashadi.

3. Amaliyatga yo'naltirilgan ta'lismi – nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash imkonini beradi.

4. Texnologik vositalardan foydalanish – multimedia, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lismi platformalari kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lismi sifati oshiriladi.

5. Muammoli ta'lismi va loyiha faoliyati – talabalarning tahliliy fikrashi va muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Innovatsion ta'lismi texnologiyalarini tatbiq etish natijasida talabalarning quyidagi jihatlari rivojlanadi:

**Tanqidiy va tahliliy fikrash** – o'quvchilar oldida turgan muammolarni turli nuqtai nazardan baholash va eng maqbul yechimni topish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**Jamoaviy ishslash qobiliyati** – zamonaviy ta'lismi metodlari orqali talabalar guruhlarda ishslash, yetakchilik va kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantiradilar.

**Yangi texnologiyalarga moslashish** – kelajakda talab qilinadigan innovatsion yondashuvlarga ega bo'lish va o'z kasbiy sohasida yangi texnologiyalarni tatbiq eta olish imkoniyati yaratiladi.

**Ijodiy tafakkur va muammolarni hal qilish qobiliyati** – talabalar innovatsion muammolarga ijodiy yondashish va amaliy yechimlar ishlab chiqishga o'rganadilar.

O'zbekiston Respublikasida texnologik ta'limga qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik

texnologiyalarni rivojlantirish va joriy etish bo'yicha bir qator farmoyishlar va qarorlar qabul qilinmoqda. Ushbu farmoyishlar va hujjatlar, ta'lismi tizimining samaradorligini oshirish, pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish va o'qituvchilarni zamonaviy metodik yondashuvlar bilan ta'minlashga qaratilgan.

**Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki**, innovatsion ta'lismi texnologiyalarini qo'llashning texnologik ta'lismi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda samarali ekanligini va ta'lismi sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy metodlardan, jumladan AKT, muammoli ta'lismi va loyiha asosida o'qitish usullarini keng qo'llash zarur.

Kasbiy kompetentlik zamonaviy ta'lismi tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat nazariy bilimlarni, balki kasbiy ko'nikmalarini, amaliy tajribani va innovatsion yondashuvlarni ham o'z ichiga oladi. Kasbiy kompetentlik o'qituvchining faqat bilim va ko'nikmalarini belgilab bermaydi, balki uning ta'lismi jarayonida yangi texnologiyalarni qo'llash va talabalarga samarali ta'lismi berish qobiliyatini ham shakllantiradi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Axmedov U, O'rınboyeva G. Pedagogik innovatsiyalar va ta'lismi texnologiyalari, T.:Fan, 2020.
2. Xodjayev Sh. Kasbiy ta'lismi nazariyasi va metodikasi, T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lismi vazirligi, 2019.
3. Rasulova D. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, T.: Ilm ziyo, 2021.
4. Jalolov J. "Innovatsion ta'lismi texnologiyalari va ularning samaradorligi", Pedagogika jurnali, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lismi, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti: www.edu.uz
6. Pedagogik innovatsiyalar bo'yicha xalqaro tadqiqotlar: www.sciencedirect.com
7. Masofaviy ta'lismi va raqamli texnologiyalar haqida: [www.researchgate.net](http://www.researchgate.net)